

Oliy ta'lim tashkilotida tyutorlarning choraklik hisobotlarini onlayn taqdim etish yuzasidan platformada alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan

YO'NALISHLAR

I. Normativ-huquqiy va ichki hujjatlardan xabardorligi hamda talabalar o'rtasida targ'ib qilishi:

a) tyutorning amaldagi qonunchilik hujjatlari, filialning "Odob-axloq kodeksi", ichki tartib-qoidalar va boshqa ichki hujjatlar bo'yicha ishtirok etgan;

2025-yil 9-dekabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida yosh xodimlar ishtirokida davra suhbat tashkil etildi. Davra suhbat davomida Yoshlar masalalari bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari X.I.Turdibekov hamda kadrlar bo'limi boshlig'i M.S.Abduraxmanovlar tomonidan yosh xodimlarni tanlash, tayyorlash va tarbiyalash tizimini kuchaytirish choralari ko'rib borish, ular uchun huquqiy madaniyat, davlat xizmatchilarining kasbiy etikasi, xizmat intizomi va mas'uliyatni oshirish yo'llari haqida atroflicha fikr-mulohazalar bildirildi. Shuningdek, filialda professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida muntazam ravishda seminarlar va uchrashuvlar o'tkazib kelinmoqda. tadbirlar soni 1 ta, ishtirokchilar 25ta

<https://t.me/TDIUSamfilial/33143>



b) talabalarga amaldagi qonunchilik hujjatlari, filialning "Odob-axloq kodeksi", ichki tartib-qoidalar va boshqa ichki hujjatlar bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni 4 ta, ishtirokchilar 86 ta talaba qatnashdi,

2025-yil 3-sentyabr kuni Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisod yonalishi IQT-125,225,325-guruh talabalariga filialning "Odob-axloq kodeksi", ichki tartib-qoidalar va boshqa ichki hujjatlari bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar bo'lib o'tdi. Tadbirda talabalarga Iqtisodiyot fakulteti dekani G'.Ibragimov, Filial korrupsiyaga qarshi kurashish Komplayens nazorat bo'limi boshlig'i A.Axmedovlar filialning "Odob-axloq kodeksi", ichki tartib-qoidalar va boshqa

https://t.me/olim_murtazayev/17862



ichki hujjatlari, bu talabalar 1-bosqichga qabul qilinganligi uchun kredit modulu platformasi haqida ham tushunchalar berib o'tildi.

Talabalarga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini tartibga soluvchi asosiy qonunlar, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, talabalarning huquq va majburiyatlari batafsil tushuntirildi. Ayniqsa: ta'lim jarayonidagi tartib-intizom, korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillari, akademik halollik qoidalari alohida ta'kidlab o'tildi. 2. "Odob-axloq kodeksi" bo'yicha tushuntirish Filialning Odob-axloq kodeksida belgilangan: talabalar odobi, kiyinish madaniyati, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot qoidalari, jamoat joylarida o'zini tutish talablari talabalarga tanishtirildi va ularga qat'iy amal qilish zarurligi eslatildi. 3. Ichki tartib-qoidalar Mas'ul xodim filialning ichki tartib-qoidalarini yana bir bor talabalarga tushuntirdi: darslarga davomad, kechikishlarga yo'l qo'ymaslik, axborot-resurs markazidan foydalanish tartibi, texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish kabi masalalar muhokama qilindi.

II. Talabalarning darsdan tashqari vaqtlarini samarali tashkil etish:

a) Mavjud to'garaklar soni **6ta** ishtirokchilar soni 62 ta. Filialda talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularning qiziqishlari va iste'dodlarini rivojlantirish maqsadida **6 ta to'garak** faoliyat yuritmoqda. Ushbu to'garaklar o'quv jarayonidan tashqari mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish, talabalarning ilmiy, ijodiy va sport salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Har bir to'garak belgilangan o'quv reja va dastur asosida o'z faoliyatini olib boradi. To'garak mashg'ulotlari tajribali ustozlar tomonidan tashkil etilib, talabalar o'z qiziqishlariga ko'ra



erkin tanlov asosida qatnashishlari mumkin. Mashg'ulotlar muntazam ravishda olib boriladi va har bir to'garak bo'yicha hisobotlar yuritiladi.

Filial rahbariyati tomonidan to'garaklar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda talabalarning iqtidorini yuzaga chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

b) ARM haqida jalb qilingan talabalar soni **125ta** o'tkazilgan tadbirlar 6ta ishtirokchilar 35ta O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 8-oktabrdagi 02/15- 01-15-347 -sonli xati ijrosi maqsadida

"Mahalla yettiligi" a'zolari va ta'lim muassasalari o'rtasida yoshlar bilan ishlashga qaratilgan hamkorlik mexanizmini amalga oshirish bo'yicha Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida kutubxona, faollar zalidan mahalladagi yoshlarning foydalanishini tashkil etish hamda ularni sport va madaniy tadbirlarga jalb etish, doimiy shug'ullanishlariga shart-sharoit yaratilgan.

Shu munosabat bilan M.Ulug'bek, A.Yassaviy, Lolazor, Professorlar, Tadbirkorlar mahalla yoshlarini "Milliy qadriyatlar va ularning millat ma'naviyatidagi o'rni" shiori ostida yoshlarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining Axborot -resurs



markazidagi shart sharoitlar bilan tanishtirib turli xil kitobxonlik tanlovlari o'tkazilib kelinmoqda. Filialimiz ARM tomonidan tashkil qilingan "Mushoira" klubi a'zolarining navbatdagi "Nizomiy Ganjaviy" va "Mahmudxoja Behbudiy" allomalarimizning xotirasiga bag'ishlangan tadbiri bo'lib o'tdi. Allomalarimiz va ularning asarlari talabalar uchun bebaho ma'naviy boylikdir, ularning xotirasini yod etish har birimizning bo'rchimiz hisoblanadi. Tadbir davomida talabalar tomonidan adiblar haqidagi ma'lumotlar sahna ko'rinishlari orqali kitobxonlarga namoish qilindi. Tadbir savol-javob va tortishuvlarga boy tarzda bo'lib o'tdi. Bugungi bellashuvda 1-orin "Buxgalteriya hisobi va moliya" fakulteti MT-125-guruh talabasi Alimkulova Mehribon 2-orin "Iqtisodiyot" fakulteti IQT-325-guruh talabasi Nematova Rayhona 3-orin "Iqtisodiyot" fakulteti IQT-325-guruh talabasi Jo'rayeva Kamola g'oliblikni qo'lga kiritdi.

a) talabalarining shaxsiy va kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan yakka va jamoaviy maslahatlar berilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni **98ta**

TDIU Samarqand filiali Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti hamda "Zakovat" klubi hamkorligida "Zakovat" intellektual o'yinining "Talabalar ligasi" kuzgi mavsum 1-turi bo'lib o'tdi. https://t.me/TDIU_SF_Yoshlari/6514



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti hamda "Zakovat" klubi hamkorligida "Talabalar ligasi" kuzgi mavsumining 6-tur o'yini bo'lib o'tdi. https://t.me/TDIU_SF_Yoshlari/6719



b) talabalarni filial yaqinida joylashgan adabiyot, sport, san'at, madaniyat va kasbga yo'naltiruvchi to'garaklar soni **6ta** ishtirokchilar **42ta**

Talabalarining teatr, muzey va boshqa ko'ngilochar maskanlarga tashriflar 3 marta 85 ta Iqtisodiyot fakulteti **IQT-125**, **IQT-225** va **IQT-325** guruhlar talabalari uchun ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi tashkiliy ishlar doirasida Samarqand shahridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi"ga ekskursiyalar uyushtirildi.



Mazkur ekskursiyalar **2025-yil 8-sentyabr** hamda **31-oktyabr** kunlari o'tkazilib, unda talabalarga O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan qatag'on yillarining fojiali oqibatlari, totalitar tuzum davrida begunoh qurbon bo'lgan ajdodlarimizning hayoti va ularning jasorati haqida batafsil ma'lumotlar berildi. Tarixiy xotira – ma'naviy va ruhiy tarbiya, Yangi O'zbekiston poydevori" shiori ostida unutilmas sayohat!

2025-yil 31-oktabr kuni, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Iqtisodiyot" fakultetitalabalari dekan G'.A.Ibragimov va ta'lim-tarbiya

<https://t.me/TDIUSamfilial/30220>



maslahatchisi Sh.X.Bektemirov boshchiligidagi Qatag'on qurbonlari muzeyiga tashrif buyurishdi.

Bu safar nafaqat tarixiy ma'lumotlarga boy, balki qalblarga chuqur ta'sir etuvchi, milliy g'urur va faxr tuyg'ularini oshirgan ma'naviy dars bo'ldi.

Talabalar Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Sadriddin Ayniy, Saidahmadxo'ja Siddiqiy Ajziy, Hoji Muin Shukrullo o'g'li, Saidrizo Alizoda kabi el-yurt ozodligi va millat ma'rifati yo'lida jon fido

qilgan ajdodlarimizning hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

Ekskursiya davomida talabalar muzey ekspozitsiyalari bilan yaqindan tanishib, tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari, shaxsiy buyumlar va fotolavhalar orqali o'tmishdagi og'ir ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida keng tasavvurga ega bo'ldilar. Muzey xodimlari tomonidan tashkil etilgan ma'rifiy suhbatlar talabalarda tarixiy xotira, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va mustaqillikning qadriga yetish tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

Ushbu ekskursiya talabalarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, tarixiy saboqlarni chuqur anglash va vatanparvarlik ruhini oshirishga xizmat qildi.

III. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tanlovlar, festivallar va olimpiadalarni targ'ib qilish hamda talabalarni jalb qilishdagi faolligi:

a) madaniy sohada tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 35 ta
ilmiy-ijodiy sohada tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 48ta TDIU Samarqand filialida 2025-yil 5-dekabr kuni "Ekofaol talabalar" bo'limi hamda "Ekovolontyor talabalar harakati" tashabbusi bilan "Eko-etika va ekologik madaniyat"

mavzusida navbatdagi seminar-trening tashkil etildi. Ma'ruzachilar: 1 “Ekovolontyor talabalar harakati” a'zosi, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti

<https://t.me/TDIUSamfilial/32397>

<https://t.me/TDIUSamfilial/32392>



Iqtisodiyot fakulteti koordinatori, BB-124 guruh talabasi Jamoliddinova Niginabonu.

2 “Ekologiya va yashil iqtisodiyot” talabalar ilmiy fan klubi raisi, dotsent Z.S. Bobomuradov.

Seminar-treningda quyidagilar amalga oshirildi: Talabalarni ekologik madaniyat va eko-etika bilan tanishtirish; Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish g'oyalari bo'yicha amaliy tushunchalar berish; Talabalar faoliyatini ekologik tashabbuslar va loyihalar orqali rag'batlantirish. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son qarori bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi”ning ijrosini ta'minlashga qaratilgan.

b) sport bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni 6ta ishtirokchilar soni 78ta

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda “5 tashabbus” doirasida sportni keng ommalashtirish maqsadida “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalariga start berildi!

https://t.me/olim_murtazayev/18196

https://t.me/olim_murtazayev/17977



Olimpiada doirasida filial talabalari o'rtasida turli sport turlari bo'yicha bahslar olib borildi. Musobaqalar yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, jamoaviylik ruhini mustahkamlash va faol hayot tarzini targ'ib etishga xizmat qiladi. 2025-yil 6-oktabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Iqtisodiyot fakulteti talabalari

<https://t.me/TDIUSamfilial/30658>

<https://t.me/TDIUSamfilial/32070>



o'rtasida "Yoshlar – besh tashabbus" loyihasi doirasida futbol musobaqasi tashkil etildi.
https://t.me/olim_murtazayev/17987



bahslar ostida kechdi. Bellashuvlar davomida talabalar sport madaniyati, o'zaro hurmat va sog'lom raqobat tamoyillariga amal qildilar.

Mazkur musobaqa talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportga bo'lgan qiziqishni oshirish hamda yoshlar o'rtasida do'stlik va jamoaviylik ruhini mustahkamlash maqsadida o'tkazildi. Musobaqada fakultetning turli guruhlaridan tashkil topgan jamoalar faol ishtirok etib, o'zaro bellashuvlar qizg'in va murosasiz

Yakuniy natijalarga ko'ra, g'olib va sovrindor jamoalar aniqlanib, tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Ushbu sport tadbiri talaba-yoshlar o'rtasida jismoniy faollikni oshirishga xizmat qilib, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etdi.

c) ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar soni 4ta ishtirokchilar soni 68ta Ma'rifat ulashib loyihasi doirasida mashhur shoir va yozuvchilar Anvarmirzo Qudratov va
<https://t.me/TDIUSamfilial/32148>

<https://t.me/TDIUSamfilial/32122>



Tozagul Jumanova bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida Toyloq tumani 13-maktabga tashrif buyurildi. TDIU Samarqand filialida Respublika "Qalqon" jamoatchilik guruhlarini rahbari Anvarmirzo Murodillayevich Qudratov ishtirokida filialning "Qalqon" jamoatchilik guruhi a'zolari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/32122>

<https://t.me/TDIUSamfilial/32122>




Uchrashuvda talabalar jamoatchilik faoliyati, huquqiy madaniyat va ijtimoiy mas'uliyat masalalari bo'yicha keng ma'lumotga ega bo'ldi. Shuningdek, talabalarga universitet hududida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilik holatlarining oldini olish hamda guruh faoliyatida faol ishtirok etish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Tadbir davomida taniqli adiblar filial hayoti, ta'lim jarayonlari hamda talabalarga yaratilgan zamonaviy sharoitlar bilan tanishdilar. Ular o'quv maskanida olib borilayotgan modernizatsiya ishlari, ilm-fan va ijodiy muhitning uyg'unligi bilan qiziqib, bu tashrif yoshlarda vatanparvarlik, ijodkorlik va maqsadlilik ruhini yanada kuchaytirishga xizmat qilishini ta'kidladilar. Tadbirda mashhur shoir va yozuvchilar Anvarmirzo Qudratov va Tozagul Jumanova, shuningdek Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Toyloq tuman bo'linmasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o'qituvchilari, filial yoshlar yetakchisi, Muborak mahallasi faollari va 13-maktab o'quvchilari ishtirok etishdi.

d) o'z tashabbusi tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 22ta

TDIU Samarqand filiali Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti Iqtisodiyot fakulteti koordinatorlari Book Clubning izlanuvchan kuzatuvchilari uchun Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asarining qizg'in muhokamasini tashkillashtirmoqda.

Ushbu tadbirda qatnashish uchun asarni o'qigan bo'lsangiz yaxshi, o'qimagan bo'lsangiz <https://t.me/TDIUSamfilial/31902>



ham ishtirok etsangiz bo'ladi. Balki keyinchalik o'qish uchun sizda ishtiyoq uyg'onadi.

Book Clubning izlanuvchan kitobsevarlari orasida Abdulla Qodiriyning mashhur "O'tgan kunlar" asari muhokamasi bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida talabalar asardagi chuqur ramzlar, g'oyalarni tahlil qildilar. Bahslar, ijodiy fikrlar va o'yinlar orqali yanada qizg'in tus oldi.

Faol ishtirok etgan barcha talabalarga samimiy minnatdorchilik bildiramiz! Sizning ishtirokingiz bu loyihani yanada mazmunli qildi.

e) milliy bayramlar bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 52ta, "1-oktabr Ustoz va murabbiylar kuni" munosabati bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida bayram tadbiri bo'lib o'tdi. TDIU Samarqand filiali direktorining "Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar" bo'yicha birinchi o'rinbosari Hasan Ibrohimovich Turdibekov jamoa nomidan barcha fidoyi professor-o'qituvchilarni kasb bayrami bilan samimiy tabriklab, yil davomida na'munali faoliyat olib borgan bir qator professor-o'qituvchilar Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Faxriy yorliqlari hamda filial direktorining



Tashakurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi. Shuningdek, bir qator o'qituvchilarga universitet Kasaba uyushmasining qimmatbaho sovg'alari ham topshirildi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali professor-o'qituvchilari hamda ta'lim-tarbiya maslahatchilari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 33 yilligi munosabati bilan viloyatimizda tashkil etilgan tadbirda faol ishtirok etdilar.

Mazkur tadbir Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini keng targ'ib qilish, qonun ustuvorligi hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan bo'lib, unda ishtirokchilar tomonidan Konstitutsiyaviy qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda demokratik tamoyillar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Tadbir doirasida professor-o'qituvchilar va ta'lim-tarbiya maslahatchilari tomonidan yoshlar o'rtasida huquqiy bilimlarni oshirish, Konstitutsiyaga hurmat ruhini mustahkamlash borasida muhim tashabbuslar ilgari surildi.

f) muhim sana bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 86ta 2025-yil, 9- dekabr kuni filialda "Korruptsiyaga qarshi kurash" oyligi yakuniga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Oylik davomida o'tkazilgan "Antikorruptsiya bilimdoni", "Eng yaxshi rasm" va "Eng yaxshi esse" tanlovlari o'z g'oliblarini aniqladi. Eng faol, ijodkor va tashabbuskor talabalar sahnaga taklif etilib, ularga munosib mukofotlar topshirildi. Tanlovda o'zining talanti va zukkoligi bilan IQT-225 guruh talabasi Esmuradov Xasan Xusniddin o'g'li "Eng yaxshi esse"



tanlovida faxrli 2-o'rin va Abdujabborova Rayxona Faxriddinovna e sa 3- o'rinni qo'lga kiritdi. Yana "Eng yaxshi rasm" tanlovida esa Abdiqaxxorova Maxliyo Albert qizi faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Mazkur tadbir yoshlar ongida halollik, mas'uliyat va adolat qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qildi. Shuningdek, oylik davomida faol qatnashgan talabalar alohida e'tirof etilib, ularning mehnat va intilishlari munosib rag'batlantirildi.

Bu mukofotlar — ularning mehnati, intilishi va mas'uliyatli yondashuviga berilgan munosib e'tirofdir. https://t.me/olim_murtazayev/17987



O'zbekistonning tegishli vazirlik va idoralari hamkorligida har yili o'tkazilib kelinayotgan "Talabalar teatr studiyalari" festivali joriy yilning 9–22 dekabr kunlari hamda 2026-yil 21-yanvar sanasigacha hududiy bosqichlarda tashkil etilishi belgilangan.

2025-yil 12-dekabr kuni festivalning 2-hududiy saralash bosqichi Samarqand davlat universiteti tadbirlar zalida ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi.

Bu jarayonda TDIU Samarqand filialining iste'dodli talabalaridan tashkil topgan IJODKORLAR teatr jamoasi ham sahnada o'z mahoratini namoyon etib, tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Yoshlarimizning sahnadagi ishonchi, ijodiy yondashuvi va jamoa bo'lib ishlash madaniyati ularning yanada yuksak cho'qqilarga chiqishga tayyor ekanini yana bir bor ko'rsatdi.

g) tanlovlar bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **6ta** ishtirokchilar soni **18ta**

2025-yil 25-noyabr kuni filialimizda ma'naviyat, notiqlik va ijtimoiy faollikni yuksaltirishga qaratilgan muhim va ma'noli tanlov — "Talaba ma'naviyat fidoiysi" bo'lib o'tdi. Bu tanlov yoshlarning tafakkuri, ma'naviyati va ijodkorligini yanada yoritishga, ularning ichki salohiyatini ochishga qaratilgan bo'lib, jarayonlar haqiqiy ma'rifiy va ruhiy ko'tarinkilik muhitida davom etdi. Tanlov uch bosqichda o'tkazildi: 1) "Men – ma'naviyat fidoiysiman" — talabaning shaxsiy taqdimoti, dunyoqarashi va ma'naviy yondashuvi

2) "Ijod va tashabbus" — she'r, insho, sahna ko'rinishi yoki taqdimot orqali ma'naviy g'oyalarni targ'ib etish 3) "Ma'naviyat sinovi" — savol-javob tarzida ma'naviy-axloqiy bilimlarni sinovdan o'tkazish

<https://t.me/TDIUSamfilial/33147>

<https://t.me/TDIUSamfilial/33147>



Tanlov natijalari:

1-o'rin — Iqtisodiyot fakulteti, IQT-225 guruh talabasi Raxmonov Farrux Ne'mat o'g'li
2-o'rin — Iqtisodiyot fakulteti, BB-125 guruh talabasi Yuldasheva Sabina Sa'dullayevna
3-o'rin — Iqtisodiyot fakulteti, BB-125 guruh talabasi O'rinboyeva Shaxzoda Rapi qizi

TDIU Samarqand filialida – “Yosh Ma’naviyatchi – 2025” tanlovi o‘tkazildi!

<https://t.me/TDIUSamfilial/32508>

<https://t.me/TDIUSamfilial/32322>



2025-yil 25-noyabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Samarqand viloyati bo‘limi hamda Samarqand viloyati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi tashabbusi bilan TDIU Samarqand filiali talabalari o‘rtasida ma’naviyat, notiqlik va ijtimoiy faollikni yuksaltirishga qaratilgan “Yosh Ma’naviyatchi” tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Tanlovning asosiy maqsadi:

Talabalarda mustahkam ma’naviy dunyoqarashni shakllantirish, Notiqlik mahoratini rivojlantirish, Faol, tashabbuskor va intellektual yoshlarni aniqlash bo‘yicha 1-o‘rin — Iqtisodiyot fakulteti, BB-124 guruh talabasi Jamoliddinova Niginabonu Bahodir qizi, 2-o‘rin — Iqtisodiyot fakulteti, IQT-225 guruh talabasi, Xolmonov Behruzbek Haqberdi o‘g‘li 3-o‘rin — Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti, MT-225 guruh talabasi Abdullayeva Hilola Shodiyor qizi G‘oliblar munosib diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi! Ushbu tanlov nafaqat bilim va iste’dod bellashuvi, balki yoshlarning ma’naviy yuksalishi, mustaqil fikrlash va notiqlik madaniyatini yanada mustahkamlash uchun muhim platforma bo‘ldi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida korrupsiyaga qarshi kurashishga bag‘ishlangan ijodiy rasmlar tanlovi boshlandi!

Tanlov g‘oyasi:

<https://t.me/TDIUSamfilial/32494>

<https://t.me/TDIUSamfilial/32494>



Korrupsiyaning zararli oqibatlari, halollik, shaffoflik va adolat tamoyillarini san’at orqali badiiy ifodalash. Talabalar rasm chizish orqali o‘z fikri, pozitsiyasi va ijodiy dunyoqarashini namoyon etadilar.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida yoshlarning iqtidorini, faolligini va tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Eng faol yil talabasi – 2025” tanlovining Filial bosqichi muvaffaqiyatli yakunlandi. Tanlov davomida talabalar o‘zining:

bilim salohiyati, ilmiy-ijodiy faoliyati, ijtimoiy faolligi, yetakchilik ko‘nikmalari, tashabbuskorlik va loyihalar bilan ishtiroki bo‘yicha baholandi.

Komissiya tomonidan barcha nominatsiyalar yuzasidan hujjatlar ko'rib chiqilib, eng munosib nomzodlar tanlab olindi. G'olib va sovrindorlar filial ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq va nizom asosidagi moddiy rag'batlar bilan taqdirlanadi.

Ushbu tanlovda BB-124 guruh takabasi Jamoliddinova Niginabonu Yilning eng faol targ'ibotchi talabasi g'olibligini qo'lga kiritdi.

18-noyabr — O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i kuni munosabati bilan Iqtisodiyot fakultetida talabalarning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash, ularda Vatanga muhabbat va milliy ramzlarga hurmat tuyg'usini mustahkamlash maqsadida "Yurtim iftixori – Muqaddas bayrog'im" nomli rasmlar tanlovi o'tkazildi. Ushbu tanlovda IQT-125 guruh talabasi Abdumo'minov Asror faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

h) festivallar bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 58ta

O'zbekiston – millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik yurti" madaniyat festivali uz Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida bo'lib o'tdi!

Filialda noyabr oyi davomida respublikamizdagi milliy madaniy markazlar bilan hamkorlikda Madaniyat kunlari tashkil etildi. Mazkur tashabbus doirasida turli millat va elatlarning urf-odatlarini, san'ati, milliy qadriyatlarini birlashtirgan katta Madaniyat festivali o'tkazildi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/29764>

<https://t.me/TDIUSamfilial/32518>



Festival doirasida:

- milliy raqs va qo'shiqlar;
- hunarmandchilik ko'rgazmalari;
- milliy taomlar taqdimoti;
- turli millat vakillarining do'stlik va bag'rikenglik ruhidagi chiqishlari namoyish etildi.

TDIU Samarqand filialida talabalar yana bir bor kino sehriga sho'ng'ishdi. Bu safar ekranlarda o'zbek kinematografiyasining durdonalaridan biri — "Qo'qon shamoli" namoyish etildi.

Filmning tarixiy voqealari va badiiy tasvirlari tomoshabinlarda katta hayrat va qiziqish uyg'otdi. Har bir sahna — o'tmishimizdan hikoya, har bir kadr — milliy merosimizdan iz... Samimiy muhitda o'tgan ushbu kino kechasi nafaqat mazmunli hordiq, balki milliy kino san'atimizga bo'lgan mehr va e'tiborni yanada mustahkamladi.

J) Olimpiadalar bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **1ta** ishtirokchilar soni 70ta Besh tashabbus olimpiadasi" – sportda g'alaba, jamoada birlik! Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sog'lom turmush

tarzini targ'ib qilish hamda "5 tashabbus" doirasida sportni keng ommalashtirish maqsadida "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalariga start berildi!

<https://t.me/TDIUSamfilial/31150>,



IV. Huquqbuzarlik, giyohvandlik va jinoyatchilikning oldini olish hamda talabalarni profilaktik tadbirlarga jalb qilishdagi faolligi:

a) korrupsiya bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **3ta** ishtirokchilar soni 86ta
2025-yil 3-sentabr kuni IQT-125, 225, 325-guruh talabalari ishtirokida korrupsiyaga qarshi profilaktik tadbir o'tkazildi

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan munosabatni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Shu maqsadda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.

Tadbirda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'lim boshlig'i Alam Axmedov, hamda tyutorlar ishtirok etib, talabalarga bo'lim faoliyati, uning maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berdilar. <https://t.me/TDIUSamfilial/30155> <https://t.me/TDIUSamfilial/32415>



9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" doirasida o'tkazilayotgan Aksilkorrupsiya oyligi munosabati bilan filialda "Korrupsiyasiz ta'lim – yorug' kelajak kafolati" mavzusida eng yaxshi esselar tanlovi bo'lib o'tdi.

Ular halollik, adolat va poklik g'oyalarini qog'ozga emas, qalblariga muhrlashdi.

Aksilkorrupsiya oyligi doirasida o'tkazilgan "Korrupsiyasiz ta'lim – yorug' kelajak kafolati" tanlovida talabalar o'z fikrini dadil ifoda etdilar:

halollik — kuch, adolat — qadriyat,

korrupsiyaga qarshi kurash — yoshlarning ongli tanlovi!

b) Giyohvandlik bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 86ta



TDIU Samarqand filiali hamkorligida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida aholining ijtimoiy faolligini oshirish, bandlikni ta‘minlash va kam ta‘minlangan oilalarga manzilli yordam ko‘rsatishga qaratilgan uslubiy-amaliy tadbir o‘tkazildi.

Tadbirda: Filialning Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat ishlari bo‘yicha direktorning birinchi o‘rinbosari, Mahalla yetiligi, Faollar hamda yoshlar ishtirok etdi.

Uchrashuv davomida: kam ta‘minlangan oilalarga manzilli ko‘mak ko‘rsatish mexanizmlari; bandlikni ta‘minlashga qaratilgan o‘quv-mashg‘ulotlar va kasb-hunar kurslari; aholiga psixologik yordam ko‘rsatish yo‘nalishlari batafsil muhokama qilinib, amaliy tavsiyalar berildi. Tadbir yakunida ishtirokchilarga Prezidentimizning 2025-yil 8-noyabr sanasida qabul qilingan PF-207-son Farmoni <https://t.me/TDIUSamfilial/32508>



— “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” hujjatining mazmun-mohiyati keng yoritildi. TDIU Samarqand filialida IQT-125, IQT-225 va IQT-325 guruhlar talabalari ishtirokida navbatdagi ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir o‘tkazildi. Tadbirda filial profilaktika inspektori D. Shodmonov, tyutorlar Sh. Bektemirov va M. Xakimov ishtirok etib, talabalarga “Jaholatga qarshi – ma‘rifat” mavzusida tushuntirish va suhbat o‘tkazdilar. Uchrashuv davomida yoshlarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish, yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolmaslik, ma‘naviy barkamollikka erishish masalalarini muhokama qildi.

c) psixotrop moddalar iste‘moli bo‘yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **1ta** ishtirokchilar soni 86ta https://t.me/olim_murtazayev/18208



d) odam savdosi bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 16ta

https://t.me/olim_murtazayev/14901

<https://t.me/TDIUSamfilial/31256>



Biz yoshlar odam savdosiga qarshimiz” mavzusida davra suhbat tashkil etildi. Iqtisodiyot fakulteti talabalari ishtirokida odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha muhim davra suhbat bo'lib o'tdi.

Tadbirda filialga biriktirilgan profilaktika inspektori D.Shodmonov, ta'lim-tarbiya maslahatchisi Sh.Bektemirov hamda QXI-123 guruhi talabalari ishtirok etishdi.

Suhbat davomida dunyo miqyosida dolzarb muammolardan biri bo'lgan odam savdosi bilan bog'liq xavf-xatarlar muhokama qilindi. Shuningdek, bu jinoyatga qarshi kurashish, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va munosib mehnat tamoyillarini joriy etish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqida batafsil tushuntirish berildi.

IQT-125, IQT-225 va IQT-325-guruh talabalari ishtirokida navbatdagi ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirda filial profilaktika inspektori D. Shodmonov hamda ta'lim-tarbiya maslahatchisi (tyutor) Sh. Bektemirovlar talabalarga “Odam savdosi” mavz usida tushuntirish va suhbat olib bordilar.

Uchrashuv davomida yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, yot g'oyalarga berilmaslik, ma'naviy barkamollikka intilish kabi dolzarb mavzular atroflicha muhokama qilindi.

Bunday uchrashuvlar talabalarda ijtimoiy faollikni oshirish, huquqiy bilim va hayotiy tajribani boyitish imkonini beradi.

e) huquqbuzarlik bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 35ta

<https://t.me/TDIUSamfilial/32925>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-noyabrdagi F-60-son Farmoyishiga asosan barcha o'quvchi va talabalarni qamrab olgan holda “Konstitutsiya darslari” o'tkazilishi belgilangan. Shu munosabat bilan TDIU Samarqand filialida reja asosida darslar tashkil etilmoqda.

Ma'ruzachi

Sh. Ortiqov- Ta'biy ijtimoiy va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-noyabrdagi F-60-son Farmoyishiga asosan barcha o'quvchi va talabalarni qamrab olgan holda "Konstitutsiya darslari" o'tkazilishi belgilangan. Shu munosabat bilan TDIU Samarqand filialida reja asosida dars tashkil etildi.

Ma'ruzachi:

"Tabiiy, ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrası professori v.b.S.Yazdanova

Guruhlar: BB-123,QXI-123,RI-123,RI-223025-yil 21-noyabrdagi F-60-son Farmoyishiga asosan barcha o'quvchi va talabalarni qamrab olgan holda "Konstitutsiya darslari" o'tkazilishi belgilangan. Shu munosabat bilan TDIU Samarqand filialida reja asosida darslar tashkil etilmoqda.

f) jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **1ta** ishtirokchilar 78ta
https://t.me/olim_murtazayev/17691



V. Talabalarni turar joy bilan ta'minlash va ularning holidan xabar olish holati:

a) talabalar turar joyida, ijarada, xususiy yoki yaqin qarindoshlarining uyida yashovchi talabalar haqida ma'lumotlar shakllantirilganligi yangilab borilgan

b) o'quv yili davomida ijara xonadonlari bazasini (zaxira uchun) shakllantirilganligi shakllantirilgan

g) talabalar turar joyida, ijarada, xususiy yoki yaqin qarindoshlarining uyida yashovchi talabalar holidan xabar olingan tadbirlar soni **5ta** ishtirokchilar soni 125ta

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida talabalar turar joyida Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari X.I. Turdibekov, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i T.A. Yuldashev, dekan o'rinbosarlari, tarbiyachi-pedagog va ta'lim-tarbiya maslahatchilari ishtirokida suhbat tashkil etildi. Suhbat davomida:

filial ichki tartib-intizomi, odob-axloq va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etish, umumiy ovqatlanish oshxonalaridan foydalanish,

"Is gazidan zaharlanish"ning oldini olish bo'yicha tushuntirishlar berildi.

<https://t.me/TDIUSamfilial/30111>



TDIU Samarqan filiali Iqtisodiyot fakulteti dekani G'.A.Ibragimov va ta'lim-tarbiya maslahatchisi Sh.Bektemirov ijara xonadonlarida yashayotgan talabalar bilan uchrashuv o'tkazishdi.

Uchrashuvda talabalar yashayotgan joylardagi gigiyena, xavfsizlik va maishiy sharoitlar o'rganildi. Isitish tizimi, gaz plitalaridan xavfsiz foydalanish hamda tartib-intizom masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Talabalar bilan samimiy muloqot bo'lib o'tdi, ularning fikr va takliflari tinglandi. Fakultet <https://t.me/TDIUSamfilial/32020> <https://t.me/TDIUSamfilial/32067> esa



zarur hollarda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yo'lga qo'ymoqda.

Maqsad — talabalarning ijtimoiy himoyasi va xavfsizligini ta'minlash, ularning yashash hamda o'qish sharoitlarini yanada yaxshilash.

https://t.me/olim_murtazayev/18685
<https://t.me/TDIUSamfilial/33273>



Uchrashuvda talabalar yashayotgan joylardagi gigiyena, xavfsizlik va maishiy sharoitlar o'rganildi. Isitish tizimi, gaz plitalaridan xavfsiz foydalanish hamda tartib-intizom masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Talabalar bilan samimiy muloqot bo'lib o'tdi, ularning fikr va takliflari tinglandi. Fakultet esa zarur hollarda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yo'lga qo'ymoqda. Menga biriktirilgan jami 130 ta talabada 17ta talaba 14 ta xonodonda yashaydi, ularning har birini ijara xonodonlari bilan tanishib kerakli tushuntirish ishlarini olib borganman.

c) **VI. Mahalla va ota-onalar bilan hamkorligi hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar bilan ishlashdagi faolligi:**

a) ota-onalar bilan aloqa o'rnatilganligi o'rnatilgan. Menga biriktirilgan guruhlarining ota-onalariga ota-onalar telegram guruhi shakllantirilgan bo'lib ularga har kunlik davomat, farzandlarining xato va kamchiliklari haqida xabar berib turaman.

h) ota-onalar yig'ilishlarini (onlayn yoki oflayn) tashkil etilganligi tadbirlar soni **1ta** ishtirokchilar soni 54ta

i) muammoli talabalar bilan ishlash bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **3ta** ishtirokchilar soni 22ta

Menga biriktirilgan QXI-123 guruh talabasi Uzoqov Ulug'xo'ja Avazxo'ja o'g'li darslarga kechikib kelishi, unig darslarga qatnashishida bazi kamchiliklar aniqlandi, keyin otasiga tel qilib bu haqida xabar berganimda otasi uni telefon orqali to'g'ri yo'lga solishga harakat qildi lekin talabada o'zgarish bo'lmagandan keyin otasi, amakisi va tog'asi 2025-yil 24-oktyabr kuni filialga tashrif buyurib filial profilaktika inspektori D.Shodmonov bilan hamkorlikda talaba Uzoqov Ulug'xo'ja Avazxo'ja o'g'li bilan suhbatlar olib borilganda u Transbankda va Uzumbankda jami 6000000 so'm mikroqrz olib uni onlayn xumori o'yinlariga tikib yutqazi qo'yilgani aniqlandi. Otasi borib o'sha qarzlarini tolab keldi va talabaga bunaqa qilgan ishlari xato, hozirgi kunda faqat o'qishi kerkligi haqida tushuntirildi. Talaba hozirgi kunda darslarga o'z vaqtida kelayapti, o'zini tutishlari ham yaxshi. Hozirgi kungacha uning ota onasi bilan telefon orqali farzandining hulqi, yurish turishi haqida suhabatlashib turamiz.



Yana shunday talabalardan biri IQT-125 guruhdan Pardayev Xusniddin Baxtiyor o'g'li hisoblanadi. Bu talabamiz kursga tiklangan bo'lib 2024-2025 o'quv yilida darslarga yaxshib qatnashmasdan mb lari ko'payib kursdan kursga qolib ketgan hisoblanadi. 2025-2026 o'quv yili IQT-125 guruhiga tiklangan. U sentyabrdan buyon darslarga kechikib kelishi va gohida kelmaganligi sababli sababsiz dars qoldirgan soarlari ko'p qiyib ketayotganligi aniqlandi va men uni ota onasini telefon nomerini topa olmadim va fakultetimiz dekani G. Ibragimov bilan internet orqali u tug'ilib o'sgan mahallani raisini telefon nomerini topdik va mahalla



raisidan uning otasi va akasini telefon nomerini oldik. Keyin telefon qilib farzandi haqida gapirganimda u kishi o'g'lidan norozi ohangda menga o'g'lim hammasi yaxshi, darslarga har kuni borib o'qiyotganligi haqida aytgandi deb javob berdi. Talabaning ota-onasi va akasi baribir farzandiga ishonmay filialga 2025-yil 7-noyabr kuni Surxandaro viloyatidan kelib o'g'li haqida ma'lumotlarni oldi va Iqtisodiyot fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari L.Eshonqulov bilan birgalikda ota-onasi bilan tushuntirish ishlarini olib bordik. Talaba hozirgi kunga darslarga qatnashaypti, o'zini tutishi yaxshi, ota-onasi bilan telefon orqali suhbatlashib turibman.



BB-123 guruh talabasi ham 2025-2026 oquv yilini boshida darslarga sababsiz kelmay, kelsa ham darslarda uxlab qolishlari kuzatildi, keyin uni onasiga telefon qilganimda o'g'lini kechasi bilan uxlamasdan telefonga pullik o'yinlarga berilib ketganini aytdi. Men 2025-yil 18-sentyabr

kuni talaba bilan yana suhbatlashganimda men hech qanday pullik o'yinlar oynamayman faqat o'zim oddiy o'yinlar o'ynayman deb javob berdi. Bu kunisiga 19-sentyabr kuni uni onasini filialga chaqirtirdim va talaba bilan tushuntirish ishlarini olib bordik, talaba hozirgi kunda yaxshi, darslarga vaqtida keladi, baholari ham yaxshi, un ota-onasi bilan telefon orqali farzandini o'qishi haqida suhbatlashib turamiz.

j) mahalla bo'yicha tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar 70ta

<https://t.me/TDIUSamfilial/30363>

<https://t.me/TDIUSamfilial/33211>



2025-yil 15-sentyabr kuni Samarqand shahar

Tadbirda filial Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari, mahalla yettiligi, faollar hamda yoshlar ishtirok etdilar.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 12-avgustdagi 299-sonli buyrug'iga asosan M.Ulug'bek, A.Yassaviy, Lolazor, Professorlar, Tadbirkorlar mahalla yoshlarini kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining Axborot-resurs markazidagi shart sharoitlar bilan tanishtirib turli xil, mushoiralar, men sevgan asar kitob taqdimotlari hamda kitobxonlik tanlovlari o'tkazilib kelinmoqda.

k) profilaktika inspektori bilan tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 68ta

<https://t.me/TDIUSamfilial/30247>

<https://t.me/TDIUSamfilial/25751>



2025-yil 9-sentyabr kuni TDIU Samarqand filialida IQT-125, IQT-225 va IQT-325 guruhlar talabalari ishtirokida navbatdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda filialga biriktirilgan profilaktika inspektori D. Shodmonov, tyutorlar Sh. Bektemirov va M. Xakimov ishtirok etib, talabalarga "Jaholatga qarshi – ma'rifat" mavzusida tushuntirish va suhbat o'tkazdilar. Uchrashuv davomida yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmaslik, ma'naviy barkamollikka erishish masalalarini muhokama qildi. Biz yoshlar odam savdosiga qarshimiz" mavzusida davra suhbat tashkil etildi. Iqtisodiyot fakulteti talabalari ishtirokida odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha muhim davra suhbat bo'lib o'tdi. Tadbirda filialga biriktirilgan profilaktika inspektori D.Shodmonov, ta'lim-tarbiya maslahatchisi Sh.Bektemirov hamda QXI-123 guruhi talabalari ishtirok etishdi. Suhbat davomida dunyo miqyosida dolzarb muammolardan biri bo'lgan odam savdosi bilan bog'liq xavf-xatarlar

muhokama qilindi. Shuningdek, bu jinoyatga qarshi kurashish, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va munosib mehnat tamoyillarini joriy etish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqida batafsil tushuntirish berildi.

l) jamoatchilik bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirlar soni **2ta** ishtirokchilar soni 68ta

<https://t.me/TDIUSamfilial/32267>



<https://t.me/TDIUSamfilial/31011>



18-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan Samarqand shahrida o‘tkazilgan ommaviy yurish marafoni yurtimiz yoshlari uchun chinakam ma’naviy bayramga aylandi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabalari ushbu marafonda faol qatnashib, yurt ramzlariga bo‘lgan hurmat, sadoqat va birdamlikni yana bir bor namoyon etishdi.

Marafonning asosiy maqsadi — yoshlarda milliy g‘urur, iftixor, Vatanga sadoqat tuyg‘ularini yanada kuchaytirish, Davlat bayrog‘imizning qadr-qimmatini yuksak e‘zozlashdan iborat bo‘ldi.

uz Bir Vatan, bir el, bir bayroq – bizni birlashtiradi!

Samarqandda ommaviy yugurish marafoni boshlandi!

2025-yil 8-oktyabr Samarqand shahrida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish maqsadida o‘tkazilayotgan ommaviy yugurish marafonida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabalari faol ishtirok etishdi.

Sog‘lom tana — sog‘lom fikr!

m) ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar bilan olib borilgan tadbirlar soni **8ta** ishtirokchilar soni 25ta

n) ehtiyojmand talabalar bilan olib borilgan tadbirlar soni **1ta** ishtirokchilar soni 29ta

Xalqaro imkoniyati cheklanganlar kuni munosabati bilan talabalar uchun ma’naviy-ma’rifiy sayohat tashkil etildi <https://t.me/TDIUSamfilial/32937>



Ta’lim-tarbiya maslahatchisi:

Sh.X.Bektemirov